



“TASDIQLAYMAN”

Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig‘i

A.R.O‘tamuratov

2025- yil “14” aprel

## Statistika ishlarini tashkil etish va ma‘lumotlarni tarqatish bo‘limi

### NIZOM

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom Xorazm viloyat statistika boshqarmasining **Statistika ishlarini tashkil etish va ma‘lumotlarni tarqatish bo‘limi** (keyingi o‘rinlarda – bo‘lim) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni hamda 2025- yil 24- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Xorazm viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – boshqarma) ning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

2. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Bo‘lim statistika ishlarini tashkil etish va ma‘lumotlarni tarqatish bo‘yicha faoliyatini Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek, tumanlar va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – hududiy statistika organlari) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatini Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rahbarligida amalga oshiradi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Xorazm viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

#### 2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bo‘yicha takliflar kiritish;

foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish;

xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;

statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash bo'yicha takliflar kiritish;

milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

*a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0 modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish natijalarini hisobga olgan holda rasmiy statistika sohasi rivojlanishining istiqbolli maqsadlari va yo'nalishlarini belgilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

rasmiy statistika tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradi;

hududiy statistika ishlarini tayyorlash dasturi, bo'limning ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtirok etadi;

bo'lim vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tavsiya, qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amaliyotga joriy etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish asosida statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullarini belgilash bo'yicha takliflar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan joriy va istiqbol rejalarini tayyorlash bo'yicha ishlarda ishtirok etadi.

*b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:*

iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega statistika ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va e'lon qilish ishlarini amalga oshiradi;

milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda statistika dasturlarining bo'limga tegishli qismlari bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlardan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida statistika organlari faoliyati jarayonlarida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashni ta'minlaydi;

qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etishni amalga oshiradi;

shartnoma asosida rasmiy statistika masalalari bo'yicha pulli xizmatlar, shuningdek, statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi hamda ishlarni bajaradi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq bo'lim faoliyati jarayonlarida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etadi;

Xorazm viloyati bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ko'rsatkichlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlaydi va e'lon qiladi;

statistik ko'rsatkichlarning tezkorligini, ishonchligini va xolisligini ta'minlash, ularning qulayligi, oshkoraligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha matbaa faoliyatini amalga oshiradi;

Statistika boshqarmasi ehtiyojlari uchun statistika byulletenlari, to'plamlar va boshqa hujjatlarni chop etish va nusxa ko'chirish ishlarini tashkil etadi;

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasini uchun statistik axborotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

viloyat iqtisodiyotining rivojlanish holati, iqtisodiyotni rivojlantirish va isloh qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi holati to'g'risidagi oylik, yillik va choraklik statistik va tahliliy materiallarni tayyorlaydi va belgilangan tartibda taqdim etadi;

statistik nashrlarda ko'rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralarini ko'radi;

o'z vakolati doirasida oylik, choraklik va yillik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlashni ta'minlaydi, shuningdek, tegishli davlat idoralari va boshqa turdagi foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etadi;

axborotnomalar, statistik to'plamlar va nashrlarni chop etish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

bo'limga kelib tushadigan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarni ko'rib chiqadi va tegishli tarmoq boshqarmalari bilan statistik ma'lumotlarni tayyorlash va murojaatchilarga yetkazish ishlarini muvofiqlashtiradi;

*v) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:*

rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish maqsadida, zaruratga ko'ra, mavjud axborot tizimlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, integratsiya faoliyatida ishtirok etadi;

statistika ma'lumotlari bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish, statistika organlarida foydalaniladigan axborot tizimlarini doimiy takomillashtirish, statistika ma'lumotlarining yagona bankini shakllantirish, ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar tarkibini kengaytirish va sifatini yaxshilashni ta'minlash ishlarida ishtirok etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida statistik ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistika ma'lumotlari bazasini ishlab chiqish va yuritish ishlarida qatnashadi;

internet resurslariga joylashtirish yo'li bilan, boshqarma faoliyatiga tegishli, statistik tasniflagichlar va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida foydalanuvchilarni xabardor qiladi;

Boshqarmaning rasmiy veb-saytidagi viloyat, shahar va tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi statistika ko'rsatkichlarini yangilab boradi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarma bo'limlari va shahar, tuman statistika bo'limlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

yig'ma ma'lumotlarni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish samaradorligini oshirish bo'yicha milliy statistika qo'mitasiga takliflar kiritish;

Statistika qo'mitasiga boshqarma va bo'limlari tomonidan statistika dasturiga asosan taqdim etiladigan statistik ma'lumotlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

yig'ma axborotlarni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borish;

o'z vakolati doirasida Statistika dasturiga muvofiq statistik ma'lumotlarni tayyorlash muddatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan boshqarma bo'limlari bilan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlar, shu jumladan xalqaro yig'ilishlar ishida, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi axborot, tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

rasmiy statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan hamda foydalanilayotgan usullarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

#### **4-bob. Bo'lim tuzilmasi**

10. Bo'limning tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bo'lim boshlig'i- 1 nafar xodim;

Bosh mutaxassis- 1 nafar xodim;

11. Bo'limga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i, bo'lim bosh mutaxassisi boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Yig'ma statistika ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha bo'lim quyidagilarni amalga oshiradi:

Viloyat bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik axborotlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlash;

yig'ma statistik ko'rsatkichlar asosida oylik, choraklik va yillik tezkor ma'lumotlarni umumlashtirish va tarqatish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda statistik axborotlar bilan ta'minlash;

yig'ma statistik ma'lumotlarni shakllantirish va tarqatish ishlarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

tarmoq boshqarma va bo'limlariga yig'ma statistik ma'lumotlar va statistik nashrlarni shakllantirish uchun maketlarini tayyorlash;

Statistika dasturiga va rahbariyat topshirig'iga muvofiq, statistik axborot va statistik nashrlarni shakllantirish;

yig'ma statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha shahar va tuman statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

14. Axborot-tahliliy ishlarni muvofiqlashtirish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

Statistika dasturiga asosan tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda statistik axborotnomalarni o'z vaqtida va sifatli chop etilishini ta'minlash;

Xorazm viloyati, shahar va tumanlar bo'yicha, iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik axborotlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlash;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda axborot-tahliliy ma'lumotlar va axborotnomalar bilan ta'minlash;

Statistika dasturiga va rahbariyat topshirig'iga muvofiq, axborot-tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish;

axborot-tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha shahar va tuman statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

15. Statistik to'plamlarni tayyorlash sho'basini quyidagilarni amalga oshiradi:

Statistika dasturiga asosan statistik nashrlarni qog'oz va elektron shaklda tayyorlash va chop etish;

statistik nashrlarning maketlari va muqovalarini ishlab chiqish;

tasdiqlangan reja-dasturiga asosan statistik nashrlarning to'ldirilishini tashkil qilish va muddatini nazorat qilish;

statistik axborotlar doimiy foydalanuvchilarining ma'lumotlar bazasini yuritish, tuzilgan shartnomalar hamda statistik ko'rsatkichlarni tayyorlash bo'yicha bir martalik so'rovlarni tahlil qilgan holda statistik nashrlarning tuzilishi va tarkibiga oid takliflar kiritish;

statistik nashrlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha boshqarma bo'limlari, shahar va tuman statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Statistika dasturiga asosan boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda statistik nashrlar bilan ta'minlash;

statistik nashrlarni tayyorlash, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

## 5-bob. Bo‘limning faoliyatini tashkil etish

16. Bo‘limning ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni, statistika dasturi, statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan hududiy statistika ishlarini tayyorlash dasturi, O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga, mazkur Nizom, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, boshqarmaning ish rejalari, va xodimlarning funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo‘lim boshlig‘i tomonidan bo‘limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va Xorazm viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

17. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo‘lim mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, bo‘limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralari bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig‘iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarma yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek statistika qo‘mitasi rahbariyatining topshirig‘iga binoan bo‘lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig‘i va uning o‘rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

yig‘ma statistik va tahliliy ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha boshqarma bo‘limlarning boshliqlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

ish yuritish, berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi, xodimlarning rasmiy hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlash tartibiga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlash;

Statistika qo‘mitasining va boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejalari muvofiq boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta‘minlaydi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralari ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zahirasi shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zahirasi kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

Boshqarma xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnoma berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini bo‘lim bosh mutaxassisi bajaradi.

lavozim yo‘riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

18. Bo‘lim bosh mutaxassisi:

Bo‘lim ishini muvofiqlashtiradi va Statistika qo‘mitasi boshqarmalari bilan hamkorlikni tashkil qilish uchun shaxsan javob beradi;

Yig‘ma statistika ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘limiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda ma‘lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

Yig‘ma statistika ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘limi mutaxassislari tomonidan statistik ko‘rsatkichlarning shakllanishini muvofiqlashtiradi, erishilgan natijalarning doimiy monitoringini yuritadi;

boshqarma boshlig‘i bilan birgalikda bo‘limlar faoliyatini takomillashtirish va Statistika dasturini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

bo‘lim faoliyatini tashkil etish va mehnat intizomini mustahkamlash bo‘yicha ishlarni mukammallashtirishni tashkil qiladi;

bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar va uchrashuvlarda boshqarma nomidan qatnashadi va h.k;

lavozim yo‘riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi;

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

statistik va tahliliy ma‘lumotlarni to‘plash masalalari bo‘yicha tarmoq bo‘limlari va shahar,tuman statistika bo‘limlari bilan hamkorlik qiladi;

Davlat boshqaruvi organlari uchun axborot, statistik va boshqa ma‘lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil qiladi;

statistik to‘plamlar, axborotnomalar va boshqa statistik nashrlarning ko‘rinishi, maketlarining tuzilishi va muqovasini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

yig‘ma statistik va tahliliy ma‘lumotlarni shakllantirish maqsadida tarmoq bo‘linmalari va hududiy statistika organlari uchun jadvallar maketini ishlab chiqadi;

statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarining so‘rovlarini o‘rganib chiqib, statistik nashrlar, axborotnomalar va boshqa axborot-tahliliy ma‘lumotlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

kelib tushgan murojaatlar bilan ishlaydi va bo‘lim ish yuritishida ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

Statistik nashrlarni ishlab chiqish va tarqatish, elektron nashrlarni tarqatish ishlarini amalga oshirishda zamonaviy tajriba va tushunchalarni o'rganib boradi;

Boshqarma bo'limlari va shahar,tuman statistika bo'limlari tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi hamda zarur tahliliy ma'lumotlar va xulosalar tayyorlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma tarmoq bo'limlari va shahar, tuman statistika bo'limlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi;

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.